



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

**Gulnozaxon Hojiboyeva**

*Namangan viloyati, Namangan shahridagi RRR academiyasi,  
ielts instructor*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash — talabalarning ma'lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash va mustaqil xulosaga kelish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim kompetensiyadir. Maqolada interfaol metodlar, muammoli ta'lim, "case study" yondashuvi, debatlar va reflektiv yozuvlar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, milliy va xorijiy ilmiy manbalarga tayangan holda, ushbu yondashuvlarning afzalliklari va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, pedagogik yondashuvlar, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, refleksiya, talaba mustaqilligi, ta'lim sifati.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimida talabalardan nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, baholash va yangi g'oyalar yaratish qobiliyati ham talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlashni shakllantirish pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash talabaning intellektual mustaqilligini ta'minlaydi, muammolarga keng qamrovli yondashuvni shakllantiradi va ijodiy fikrlashga zamin yaratadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, bunda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihibiy ishlar, debatlar va reflektiv tahlil mashg'ulotlari keng qo'llaniladi. Ushbu metodlar ta'lim jarayonini talaba shaxsiga yo'naltiradi hamda bilimni passiv qabul qilishdan faol izlanish va ijodiy tafakkurga o'tishni ta'minlaydi. Mazkur tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik yondashuvlar nuqtai nazardan tahlil qilinadi hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik yondashuvlarini o'rganishda **qiyosiy metod** asosiy metodlardan biri sifatida tanlandi. Bu metod yordamida O'zbekiston ta'lim amaliyoti va xalqaro ilg'or tajribalar solishtirilib, o'xshashliklar va tafovutlar tahlil qilindi. O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun asosan quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- **Debatlar va munozaralar** – talabalar o'z fikrlarini asoslash, dalillar keltirish va qarama-qarshi g'oyalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar [1].
- **Muammoli ta'lim** – dars jarayonida o'qituvchi ataylab yechimi ochiq bo'lgan savollarni beradi, talabalar esa muammoni tahlil qilib, o'z takliflarini ilgari suradilar.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



- **Loyihaviy ishlar** – talabalar real hayotiy muammoni o‘rganib, yechim ishlab chiqadilar. Masalan, “Atrof-muhit muammolari va ta’limdagi o‘rni” mavzusida loyiha ishslash orqali tanqidiy tahlil ko‘nikmalari rivojlanadi.

Rivojlangan davlatlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy metodlar tizimli qo‘llanilmoqda:

- **Problem-Based Learning (PBL)** – AQSh va Buyuk Britaniya oliygohlarida keng tarqalgan. Talabalar real klinik yoki ijtimoiy vaziyatlar asosida muammo yechish jarayoniga jalb qilinadilar [2].

- **Case-study (vaziyatli tahlil)** – biznes va huquq ta’limida keng qo‘llaniladi. Masalan, Harvard Business School’da talabalar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilib, o‘z strategiyalarini ishlab chiqadilar.

- **Reflektiv yozuvlar va portfoliolar** – Finlyandiya ta’lim tizimida talabalar muntazam yozma tahlil orqali o‘z fikrlash jarayonini qayd etib boradilar, bu esa ularda ongli ravishda tanqidiy yondashuvni shakllantiradi [3].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va xorijiy tajribada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir qator umumiyliliklar va farqlar mavjud.

O‘xshashliklar: Har ikki tajribada ham interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish va guruhiy muhokamalar keng qo‘llaniladi. Bu esa talabalarning o‘z fikrini erkin ifodalash, bahs-munozaralarda qatnashish va mavjud muammolarga mustaqil yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Tafovutlar: Xorijiy amaliyotda metodlar ko‘proq integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi. Masalan, problem-based learning (PBL) usuli bir vaqtning o‘zida nafaqat tanqidiy fikrlash, balki ijodiy fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlanirishga xizmat qiladi. Mahalliy ta’lim amaliyotida esa metodlar ko‘proq alohida-alohida qo‘llanilib, ularning o‘zaro bog‘lanishi yetarlicha ta’milangan. Shuningdek, xorijda refleksiya va mustaqil yozma tahlil keng qo‘llanilsa, O‘zbekistonda bu usullar hali keng tarqalmagan.

Mazkur qiyosiy tahlildan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Mahalliy ta’lim jarayoniga case-study va reflektiv yozuvlarni keng tatbiq etish talabalarni chuqurroq tahlil qilish, o‘z fikrlarini asoslash va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi.

Xorijiy tajribadagi integratsiyalashgan yondashuvlar, xususan PBL usulini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali talabalar nafaqat tanqidiy, balki ijodiy fikrlash va jamoada ishslash ko‘nikmalarini ham rivojlanirishlari mumkin.

Qiyosiy metod asosida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlanirish samaradorligi nafaqat metod tanlovida, balki uni to‘g‘ri tashkil etish, talabalarning faolligini ta’milash va o‘quv jarayonida izchil qo‘llashga ham bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlanirishda turli xil pedagogik metodlar qo‘llanilsa-da, ularning samaradorligi metodning mazmuni va qo‘llanish uslubiga bevosita bog‘liqdir. Xorijiy ta’lim amaliyotida





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



interfaol metodlar integratsiyalashgan tarzda qo'llanilib, talabalarni nafaqat tanqidiy, balki ijodiy va analitik fikrlashga ham yo'naltiradi. Mahalliy ta'lim tizimida esa bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanmoqda va asosan metodlarni alohida qo'llash ustuvorlik qiladi.

Demak, mahalliy ta'lim jarayonida xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, case-study, PBL (problem-based learning), reflektiv yozuv kabi metodlarni keng tatbiq qilish orqali talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Umuman olganda, tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligi nafaqat tanlangan metodga, balki o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish, talabalarni faol jalb etish va ularning mustaqil izlanishlariga sharoit yaratishga ham bog'liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (1910). *How We Think*. Boston: D.C. Heath & Co.
2. Ennis, R. H. (2011). *The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities*. University of Illinois.
3. Facione, P. A. (1990). *Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction*. The Delphi Report. California Academic Press.
4. Halpern, D. F. (2014). *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking*. 5th Edition. New York: Psychology Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sod Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi".

